



## MUROJAAT ETISH HUQUQINI AMALGA OSHIRISH KAFOLATLARI

**Temirov Dilshod Anvar o'g'li**

*IIV Akademiyasi 3-bosqich 329- guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fuqorolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda davlat hokimiyati, huquqni muhofaza etuvchi organlarga doimo murojaat qilish huquqini kafolatlanganligiga oid asosiy chora tadbirlarga bag'ishlangan. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rilmassdan qolib ketishini oldini olish hamda turli xil shaklda beriladigan murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqilishi bilan bog'liq chora-tadbirlar takomillashtirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *jismoniy va yuridik shaxslar murojaati, kafolat, jarayon, ariza, taklif, shikoyat, muddat, anonim murojaat, dublikat*

Murojaatlar bilan ishlash tizimini tartibga solishda birinchi navbatda Konstitutsiyamizni asosiy hujjat sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Konstitutsiyamizga to'xtaladigan bo'lsak, Konstitutsiyamizning VII bobi siyosiy huquqlarga bag'ishlangan bo'lib, bevosita 40-modda mazkur munosabatni tartibga soladi. Chunonchi, mazkur moddani sharhlaydigan bo'lsak, "Ushbu moddada belgilangan norma fuqarolar siyosiy huquqlarining tarkibiy qismi bo'lmish shaxslarning davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga murojaat qilish qoidalarini belgilaydi. Unga ko'ra, har bir shaxs o'zini qiziqtirgan yoki manfaatdor bo'lgan masalalarda yakka o'zi yoki ko'plashib vakolatli davlat organlariga, muassasalarga va xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilishga haqlidir.

Konstitutsiyaning ushbu normasidan O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham foydalanishlari mumkin. Eng muhimi, fuqarolarning ushbu huquqlarini amalga oshirishlari boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasligi kerak.

Darhaqiqat, Konstitutsiyaning o'zida to'g'ridan-to'g'ri belgilanganidek, fuqarolarning murojaatlari ariza, taklif va shikoyat ko'rinishida og'zaki ham, yozma shaklda ham, shuningdek elektron bo'lishi mumkin. Bu uch shakl ham bir xil ahamiyatga ega.

Murojaatlarda fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, ariza, taklif yoki shikoyatning mohiyati bayon etilgan, yozma shakldagi murojaatlar murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Bordi-yu, ushbu ma'lumotlar ko'rsatilmasa yoki mazkur ma'lumotlar soxta bo'lsa, imzolanmagan bo'lsa, bunday murojaatlar anonim hisoblanadi va ular ko'rib chiqilmaydi. Fuqarolarning yuqoridagi talablarga javob beruvchi murojaatlari albatta, qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi kerak. Qonunchilikka ko'ra, fuqarolarning takliflari tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddat ichida ko'rib chiqiladi,

qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno va bu haqda taklif kiritgan shaxsga o'n kunlik muddat ichida ma'lum qilinadi. Ariza yoki shikoyatlar masalani mohiyatan hal etishi shart bo'lgan davlat organiga tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddat ichida, qo'shimcha o'rganishni va tekshirishni talab etmaydigan ariza yoki shikoyatlar esa o'n besh kundan kechiktirmay ko'rib chiqiladi. Ariza yoki shikoyatni ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallar talab qilib olish yoki boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ariza yoki shikoyatni ko'rib chiqish muddati tegishli davlat organi rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin va bu haqda ariza yoki shikoyat bergan shaxsga ma'lum qilinadi<sup>1</sup>".

O'zbekiston Respublikasida 1992-yilda Konstitutsiya qabul qilingach, u asosida fuqarolarning murojaat qilishga bo'lgan huquqi kompleks institut sifatida shakllana boshladi. 1994-yil 6-mayda "O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun fuqarolar murojaatlari institutini huquqiy tartibga solish mexanizmida asosiy poydevor bo'lib xizmat qildi. Qonun chiqaruvchi parlament bu sohadagi amaliyotni umumlashtirib, 2002 yil 13 dekabrda yuqoridagi qonun hujjatini yangi tahrirda qabul qildi. Huquqni qo'llash amaliyotini jiddiy tahlil etish va umumlashtirish asosida murojaatlar institutini yanada takomillashtirish zaruriyatidan kelib chiqib, 2014-yil 3-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. 2017-yil 11-sentyabrda esa bu qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq tartib-taomillar, bundagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish darajasi ilg'or demokratik davlatlar talab darajasiga ko'tarildi. Jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlariga murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etish bilan bog'liq munosabatlarning maxsus qonun va alohida turkum normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi bu sohada so'nggi yillar davomida to'planib qolgan muammolarni hal etish va bu munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlar tizimidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish imkoniyatini yaratdi.

Hozirgi vaqtda ta'kidlash mumkinki, murojaat qilish huquqi institutining shakllanishi va rivojlanishi uni konstitutsiyaviy mustahkamlanishidan tortib to normativ-huquqiy hujjatlar darajasida huquqiy tartibga solish mexanizmi yaratilishigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan bog'liq

---

<sup>1</sup> 1994-yil 6-mayda "O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni

qonunchilikni yanada rivojlanishida muhim omil vazifasini bajardi. O'zbekistonning yangilangan konstitutsiyaviy strategik islohoti, shuningdek mamlakatimiz oldida turgan masalalar xususiyati yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, erkinligi va manfaatlarini davlat organlari tomonidan ta'minlash ishlarini yanada takomillashtirilishini talab etadi. Bu esa, davlatimizning murojaatlarni ta'minlash va himoya qilish huquqini konstitutsiyaviy maqomda bo'lishini talab etadi. Murojaat huquqi dolzarb konstitutsiyaviy huquq bo'lib, u davlat boshqaruvi ishlarida qatnashish shakli, buzilgan huquqni himoya qilish yo'li, hokimiyat organlarini tegishlilik haqidagi ma'lumot manbai va ishonch darajasi bo'lib xizmat qiladi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4904-sonli Farmoni bilan joriy etilgan "xalq qabulxonasi" va "virtual qabulxona" lar ishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Avvalo, Farmonda ko'rsatilgan qabulxonalar quyidagi tartib (struktura)da tuzilgan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari - Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda (tumanga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari);

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi.

Barcha darajadagi Xalq qabulxonalari xodimlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasining xodimlari hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda (tumanga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari) tuzilayotgan Xalq qabulxonalari faoliyatini tashkiliy, moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash tegishlilikicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimiyatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashda joylardagi ijro hokimiyatni amalga oshiruvchi organlar faoliyati maxsus ishlab chiqilgan va normativ-huquqiy asosi sifatida 2018-yilga qadar Vazirlar Mahkamasining 73-sonli "Namunaviy nizomi", ayni vaqtda esa 341-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Namunaviy nizom" mazkur sohaga oid muammolarni, hokimiyat va mahalliy huquqiy hujjatlar uchun, shuningdek zamonaviy sharoitlarda murojaat etuvchi fuqarolarni konstitutsiyaviy huquqlarining kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan faoliyat uchun namuna bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, barcha vazirlik va hokimliklar tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyat, tuman, shaharlar hokimliklariga bir oylik muddat ichida Namunaviy nizomga muvofiq jismoniy va

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni 2017-yil 11-sentyabr



yuridik shaxs murojaatlari bilan ishlashga doir o'z nizomini qabul qilish majburiyati yuklandi. Bunga sabab shuki, har bir hokimiyat organida o'zlari qabul qilgan turlicha idoraviy hujjatlar mavjudligidir<sup>3</sup>. Maqsad esa murojaatlar bilan ishlashning yagona bir turdagi huquqiy bazasini yaratishdan iborat.

Farmon mansabdor shaxslar va davlat organlari rahbarlaridan, barcha darajadagi hokimlardan xo'jalik sohasidagi mansabdor shaxslardan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari o'z vaqtida ko'rilishini muntazam ta'minlash, shuningdek, Xalq qabulxonasi har oyda Fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash Xizmatiga "xalq qabulxonasi" va "virtual qabulxona"ga kelib tushgan murojaatlar bo'yicha hisobot beradi. Ular murojaatlar bilan ishlash haqidagi qonunchilik normalariga rioya qilmaganlari taqdirda jinoiy javobgarlikkacha bo'lgan qat'iy jazoga tortilishlari haqida ogohlantirilganlar.

Mazkur farmonning tahlili shuni ko'rsatadi-ki, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek ularning vakillari tomonidan kelib tushgan murojaatni qabul qiluvchi organlarning faoliyatiga katta e'tibor qaratilgan. Unda "xalq qabulxonalari" jismoniy va yuridik shaxslar hamda ularning vakillarining davlat organlari rahbarlari va xo'jalik sohasidagi mansabdor shaxslari bilan uchrashishiga e'tibor qaratilgan. Murojaatlar to'g'risidagi qonunda mazkur masalaga alohida modda (8-modda) bag'ishlangan. Namunaviy nizomda esa, butun bir bob: "Jismoniy va yuridik shaxslar va ular vakillarining murojaatlarini qabul qiluvchi organlar" degan 5-bob mavjud. Namunaviy nizomga ko'ra: jismoniy va yuridik shaxslar va ularning vakillarini maxsus organ tomonidan qabul qilinish vaqti, kuni va tasdiqlangan qabul jadvali asosida amalga oshiriladi. Murojaatlarni va ular muallifini qabul qilish shaxsan davlat organi rahbari tomonidan yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan alohida maxsus ajratilgan xonalarda amalga oshiriladi. Shuningdek, sayyor qabullarni ham amalga oshiradilar.

### **Xulosa**

Xulosa qilish mumkinki, Murojaat qilish har bir shaxsning uzviy huquqi hisoblanib, tizimlashtirilgan huquqlar turining siyosiy huquqlar turiga mansubdir. Jumladan har bir shaxs davlat organlari, muassasalariga, o'zlarining ariza, shikoyat, takliflari bilan murojaat etish huquqi kafolatlanadi. Demak, yuqoridagi normalardan shundau xulosa chiqarsak bo'ladiki murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish tegishli tartibda javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Fuqarolar murojaatlari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini tahlil etib o'rganish va xalqaro tajribadan foydalanib yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantirish orqali erishilsa bo'ladi.

---

<sup>3</sup> 1994-yil 6-mayda "O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Mirziyoev Sh.M.* Qonun ustuvorligi – inson mafaatlarini ta’minlashning muhim omilidir. – xalq so’zi. – T., 2017. 8 yanv.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi 2018 yil 7 maydagi 341-sonli Qarori.
4. *Pulatov Yu.S., Ismailov I.U., Qurbonov A.* Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari. Darslik. – T.: IIV Akademiyasi, 2005. – 96-100-b.

